

Musurmonova Shahina Zarif qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Samarqand viloyati
akademik litseyi 2-bosqich talabasi

shahinamusurmonova67@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi sud tizimini raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslari tahlil etiladi. Prezidentning PQ-358-son qarori, PF-140-son va PF-189-son Farmonlari, shuningdek 2026-yil 21-yanvardagi O'RQ-1115-son Qonun yuridik jihatdan baholanadi. Xitoy, Estoniya va Yevropa Ittifoqi tajribasi qiyosiy o'rganilib, milliy qonunchilik istiqbollari aniqlangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, sud tizimi, "Raqamli sud", odil sudlov, PF-140, O'RQ-1115, my.sud.uz, algoritmik javobgarlik, raqamli odil sudlov.

Аннотация. В статье анализируются правовые основы цифровизации судебной системы Республики Узбекистан и внедрения технологий искусственного интеллекта (ИИ). Юридической оценке подвергаются Постановление Президента ПП-358, Указы УП-140 и УП-189, а также Закон ЗРУ-1115 от 21 января 2026 года. Сравнительно изучен опыт Китая, Эстонии и Европейского Союза, определены перспективы развития национального законодательства.

Ключевые слова: искусственный интеллект, судебная система, «Цифровой суд», правосудие, УП-140, ЗРУ-1115, my.sud.uz, алгоритмическая ответственность, цифровое правосудие.

Abstract. The article analyzes the legal foundations for digitalizing the judicial system of the Republic of Uzbekistan and introducing artificial intelligence (AI) technologies. Presidential Resolution PP-358, Decrees UP-140 and UP-189, as well as Law ZRU-1115 of 21 January 2026 are evaluated from a legal standpoint. The experiences of China, Estonia and the European Union are comparatively examined, and prospects for the development of national legislation are identified.

Keywords: artificial intelligence, judicial system, "Digital Court", justice, UP-140, ZRU-1115, my.sud.uz, algorithmic accountability, digital justice.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning shiddatli rivoji davlat boshqaruvi, jumladan sud-huquq tizimi oldiga tubdan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Sun'iy intellekt insonning aqliy faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi besh yil mobaynida O'zbekistonda ushbu sohani huquqiy tartibga solish bo'yicha bir nechta strategik hujjatlar qabul qilindi va bu sud tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Maqolaning maqsadi amaldagi qonunchilik asosida sud tizimida SI dan foydalanishning huquqiy poydevorini, amaliy imkoniyatlarini va istiqbollarni ilmiy tahlil qilishdan iborat.

I. Sun'iy intellekt tushunchasi va sud tizimidagi o'rni

2026-yil 21-yanvarda qabul qilingan O'RQ-1115-son Qonun mamlakatimizda ushbu sohaga normativ ta'rif bergan birinchi qonun hujjati hisoblanadi. Qonunga muvofiq, sun'iy intellekt bu insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qila olish, mustaqil ravishda o'rganish, yechim izlash hamda aniq vazifalarni bajarish orqali inson aqliy faoliyati natijalariga taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beruvchi texnologik yechimlar majmuidir.

Sud tizimida SI quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi: hujjatlarni avtomatik tasniflash va arxivlash; sud amaliyoti hamda qonun normalarini tezkor tahlil qilish; davlat boji va sud xarajatlarini hisoblash; audio-video transkripsiya; fuqarolar uchun virtual maslahatchi xizmatlari; statistik tahlil va prognozlash. Ta'kidlash lozimki, jahon amaliyotida SIga sud qarorini mustaqil chiqarish vakolati berilgan davlat mavjud emas yakuniy qaror inson sudyasi tomonidan qabul qilinadi.

II. O'zbekiston qonunchiligida SIning huquqiy mavqei

Mamlakatimizda ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazaning shakllanishi Prezidentning 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori bilan boshlangan. Sohaning rivojidagi muhim qadam Prezidentning 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" hisoblanadi. Strategiya O'zbekistonni Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksi (Government AI Readiness Index) bo'yicha dunyoning birinchi 50 ta davlatlari qatoriga olib chiqishni nazarda tutadi.

Sud tizimi uchun bevosita ahamiyatga ega hujjat Prezidentning 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son Farmonidir. "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi ushbu Farmon quyidagi ustuvor maqsadlarni belgilab beradi: qog‘oz shaklidan voz kechish va “Raqamli sud” konsepsiyasi doirasida ishlarni elektron ko‘rinishga o‘tkazish; interaktiv elektron xizmatlarni kengaytirish, jumladan sud xarajatlarini SI yordamida hisoblash; 2026-yil 1-yanvardan boshlab “my.sud.uz” portalida virtual maslahatchini joriy etish.



Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibida Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt departamenti tashkil etiladi, “UZINFOCOM” MChJ esa yagona integrator etib belgilangan. 2025-yil yakuniga qadar Toshkent shahrida “Raqamli sud” majlis zallari tajriba sifatida tashkil etiladi. Prezidentning 2025-yil 22-oktyabrdagi PF-189-son Farmoni esa 2026-yil yakuniga qadar 100 dan ortiq SI loyihasini amalga oshirish va 2030-yilgacha 1 milliard AQSh dollaridan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilishni nazarda tutadi. O‘RQ-1115-son Qonun bilan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 46²-moddasi SI yordamida shaxsga doir ma‘lumotlarni noqonuniy ishlash uchun maxsus javobgarlikni belgiladi.

Amaliy imkoniyatlar va istiqbollar

Quyidagi infografikada O‘zbekistonda sud tizimida SIni joriy etishning huquqiy yo‘l xaritasi, ustuvor maqsadlar va texnologiya qo‘llaniladigan asosiy yo‘nalishlar miqdoriy ko‘rsatkichlarda aks ettirilgan.

O‘zbekistonda sud tizimida sun‘iy intellektni joriy etishning huquqiy yo‘l xaritasi

O‘zbekistonda sud tizimini raqamlashtirish bo‘yicha asosiy hujjatlar (vaqt o‘qi)



1-rasm. Sud tizimida sun‘iy intellektni joriy etishning huquqiy yo‘l xaritasi (muallif tomonidan tuzilgan).

PF-140-son Farmon asosida SIning sud tizimidagi amaliy ahamiyati to'rt asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: sud ish ko'rish muddatining qisqarishi (Estoniya tajribasida ayrim ishlar bir necha kun ichida hal etilgan); hujjat shakllantirish va qonun normalarini qidirishning avtomatlashuvi; "my.sud.uz" orqali fuqarolarning sud xizmatlaridan masofadan foydalanish; ishlarni tasodifiy taqsimlash va statistik tahlil orqali sud xolisligini mustahkamlash.

Xalqaro tajriba va saboqlar

Sud sohasida sun'iy intellektni qo'llashda xorijiy tajriba O'zbekiston uchun qimmatli yondashuvlarni taqdim etadi. Xitoyda "Aqlli sud" (Smart Justice) islohoti doirasida internet-sudlar SI asosida sud qarori loyihalarini tayyorlaydi, biroq yakuniy qaror inson sudyasi tomonidan tasdiqlanadi. Xebey provinsiyasining Oliy sudi "Intelligent Trial 1.0" tizimini ishlab chiqib, u hujjatlarni raqamlashtirish va qonun qidirish funksiyalarini bajaradi. Estoniyada esa 8 000 yevrogacha pul talablari uchun yarim-avtomatik to'lov buyrug'i tartibi joriy qilingan, ammo Adliya vazirligi inson sudyasini SI bilan to'liq almashtirish niyati yo'qligini rasman bildirgan.

Yevropa Ittifoqi 2024-yil 1-avgustdan kuchga kirgan EU AI Act doirasida sud tizimidagi SI "yuqori xavfli" texnologiya toifasiga kiritgan. AQShda "COMPAS" sud-pretsessual dasturi diskriminatsion natijalari bilan tanqidga uchragan tajriba inson nazoratining ahamiyatini tasdiqlaydi. O'zbekiston uchun saboqlar: SI sudyani almashtirmasligi, balki yordamchisi sifatida ishlashi; algoritmlar shaffofligi qonun darajasida belgilanishi; shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi mexanizmlarining mustahkam bo'lishi shart.

Huquqiy javobgarlik va etik muammolar

Sud tizimida SIDan foydalanish bir qator huquqiy va etik xavflarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, algoritmik tarafkashlik (algorithmic bias) muammosi: agar SI o'rgatilgan ma'lumotlar diskriminatsion bo'lsa, uning tavsiyalari ham xolis bo'lmaydi. Ikkinchidan, "qora quti" (black box) muammosi ya'ni murakkab neyron tarmoqlar ma'lum bir xulosaga qanday yo'l bilan kelganini tushuntirib berib bo'lmashligi sud qarorlarining asoslangan bo'lishi tamoyiliga zid kelishi mumkin.

Uchinchidan, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi. O'RQ-1115-son Qonunga ko'ra, SI yordamida shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda ishlov bergan shaxslarga 15 sutkagacha ma'muriy qamoq yoki bazaviy hisoblash miqdorining 50 dan 100 baravarigacha jarima, shuningdek ish qurollarini musodara qilish qo'llaniladi. To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq sudyalar mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadilar bu tamoyil SI tavsiyalari sudyani biror qaror

tomon “majburlay” olmasligi zarurligini bildiradi. Beshinchidan, javobgarlikni taqsimlash masalasi: agar SI noto‘g‘ri tavsiya bersa, javobgarlik kimga sudyaga, integrator tashkilotga yoki algoritm ishlab chiquvchiga yuklanishi milliy qonunchilikda batafsil tartibga solinmagan.

Xulosa

O‘tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qisqa muddat ichida sun‘iy intellekt sohasini huquqiy tartibga solishda sezilarli yutuqlarga erishdi. PQ-358-son qaror, PF-140-son va PF-189-son Farmonlar hamda O‘RQ-1115-son Qonun “Raqamli sud” konsepsiyasini amaliyotga joriy etish uchun yetarli huquqiy poydevorni shakllantirdi.

Shu bilan birga, qonunchilikda hali to‘ldirilishi lozim bo‘lgan jiddiy bo‘shliqlar mavjud: algoritmlarning audit qilinishi, SI tavsiyalariga apellyatsiya tartibi, etik standartlar va sud algoritmlari uchun javobgarlik mexanizmlari maxsus normativ hujjatlarda batafsil belgilanishi zarur. Kelajakda “Sud tizimida sun‘iy intellektidan foydalanish to‘g‘risida”gi alohida Qoidalar to‘plamini qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Faqat shu yondashuv “Inson qadri uchun” g‘oyasiga mos keluvchi haqiqiy adolatli va zamonaviy raqamli sud tizimini barpo etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan tahriri). Toshkent: “Adolat”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5297046>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son qarori. <https://lex.uz/acts/-7158604>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudlar faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta‘minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 22-oktyabrdagi PF-189-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7789403>

6. “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-8008401>
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2025–2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 10-iyuldagi 425-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7621993>
8. Axrorov N. A. Sun’iy intellektning sud-huquq tizimida tutgan o‘rni hamda undan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari // Ilm-fan iftixori. 2024. <https://interspp.com/index.php/ilmfaniftixori/article/view/2140>
9. Bozorov S. S. Sun’iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik: yuridik fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2023.
10. Salimov K. Z. Yuridik ta’limda va huquqshunos kasbiy faoliyatida “sun’iy intellekt”ning o‘rni va ahamiyati // Innovative Academy: Yurisprudensiya. 2022.
11. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council on Artificial Intelligence (Artificial Intelligence Act). Official Journal of the EU, 12.07.2024.
12. Gamito Cantero M., Gentile G. Algorithms, Rule of Law, and the Future of Justice: Implications in the Estonian Justice System. European University Institute Policy Brief, 2023.